ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/2026.10.06.Fil.06.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

Quranbayeva Gulianbar Umirbek qizi

SIROJIDDIN SAYYIDNING BADIIY VA PUBLITSISTIK MAHORATI

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya AVTOREFERATI

Urganch – 2026

UO‘K: 821.512.133`06.09-1

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD) on Philological sciences

Quranbayeva Gulianbar Umirbek qizi
Sirojiddin Sayyidning badiiy va publitsistik mahorati…….....3

Kuranbayeva Gulianbar Umirbek kizi
Sirojiddin Sayyid’s Artistic and Journalistic Mastery……..…...28

Куранбаева Гулианбар Умирбек кизи
Художественное и публицистическое мастерство Сирожиддина Саййида…53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ……59

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/2026.10.06.Fil.06.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

Quranbayeva Gulianbar Umirbek qizi

SIROJIDDIN SAYYIDNING BADIIY VA PUBLITSISTIK MAHORATI

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya AVTOREFERATI

Urganch – 2026

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4802 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi www.urdu.uz va “Ziyonet” axborot-ta’lim portali www.ziyonet.uz manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar	**Raximova Bekposhsha Baxadirovna** filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Sa’dullayeva Mohira Ataullayevna** filologiya fanlari doktori(DSc), dotsent
	Sabirova Zebo Zokirovna filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Urganch RANCH texnologiya universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/2026.10.06.Fil.06.06 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “25” noyabr soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida (D-1094 raqam bilan ro‘yxatga olingan) tanishish mumkin. Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “6” noyabr da tarqatildi.
(2026-yil “6” noyabr dagi 93-raqamli reyestr bayonnomasi.)

D.Q. G‘ayipov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

S.S. Atajanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.I. Primov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida ijodkor shaxsini, uning badiiy tafakkuri, individual uslubi va estetik qarashlarini yaxlit holda o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, adabiy jarayon taraqqiyotida muayyan ijodkorning poetik mahorati, badiiy tafakkurining shakllanish omillari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ifodalashdagi o‘ziga xos uslubi hamda publitsistik faoliyatini tizimli ravishda o‘rganish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Hozirgi zamon adabiyotshunosligida badiiy ijod va publitsistikaning o‘zaro aloqadorligi, ijodkor dunyoqarashining she’riy va publitsistik asarlarda namoyon bo‘lish tamoyillari, milliy tafakkur va badiiy-estetik qarashlarning adabiy matndagi ifodasi masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida ijodkor iqtidorini tahlil etish jarayonida badiiy tafakkur, individual uslub, obraz yaratish mahorati, poetik til, falsafiy mushohada, milliylik va umuminsoniylik munosabati kabi masalalar keng o‘rganilgan. Shu bilan birga, zamonaviy adabiyot vakillarining she’riy hamda publitsistik ijodini o‘zaro uyg‘unlikda tadqiq etish, ularning adabiy-estetik qarashlarini aniqlash, milliy adabiyot taraqqiyotidagi o‘rnini belgilashga qaratilgan ilmiy izlanishlar izchil davom etmoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligida istiqlol davri adabiyoti namoyandalarining badiiy mahorati, poetik tafakkuri va adabiy-estetik qarashlarini o‘rganish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganidek, hozirgi kunda milliy o‘zligimizni saqlab qolish, xalqimizning ong-u tafakkurini yuksaltirish va shu orqali mamlakatimizni izchil taraqqiy ettirish uchun avvalambor adabiyot, madaniyat va san’at sohalarini qo‘llab-quvvatlashimiz zarur[1]. Zamonaviy o‘zbek she’riyatining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Sirojiddin Sayyid ijodi milliy ruh, Vatanga muhabbat, tarixiy xotira, inson va tabiat munosabatlari, ma’naviy qadriyatlar talqini, falsafiy mushohadakorlik hamda yuksak badiiy mahorati bilan alohida ajralib turadi. Shoir she’riyatida xalqona ruh va zamonaviy badiiy tafakkur uyg‘unlashgan bo‘lib, unda milliy o‘zlikni anglash, inson qalbi kechinmalari, hayot va zamon haqidagi teran falsafiy mushohadalar o‘ziga xos poetik talqin etiladi. Shu bilan birga, Sirojiddin Sayyidning publitsistik ijodi ham uning adabiy-estetik qarashlari, ma’naviy-axloqiy ideallari va ijtimoiy pozitsiyasini yorituvchi muhim manba hisoblanadi. Shoir ijodining ayrim jihatlari adabiy-tanqidiy maqolalar va ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan bo‘lsa-da, uning badiiy va publitsistik mahoratini o‘zaro uyg‘unlikda, kompleks tarzda o‘rganish, poetik tafakkuri, obrazlar tizimi, janriy izlanishlari, uslubiy individualligi hamda publitsistik qarashlarini yaxlit tizimda tadqiq etish zarurati mavjud. Sirojiddin Sayyidning she’riy va publitsistik ijodini ilmiy-nazariy asosda o‘rganish, uning zamonaviy o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini belgilash mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash haq ida”, 2019-yil 29-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili maqomini yanada mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar

[1] Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 258.

to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022-2026-yillar uchun mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim muassasalarini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 18-maydagi PQ-376-son “Jahon adabiyotining tanlab olingan namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish va nashr etish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yaxshilash va ularning respublika miqyosida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Adabiyotshunoslikda ijodkor poetik mahorati masalasining nazariy asoslari jahon va rus adabiyotshunosligida muayyan darajada o‘rganilgan. Bunda ijodkorning lirik qahramon yaratish mahorati, so‘z tanlash, badiiy obraz tizimini shakllantirish, uslubiy individuallik, badiiy tafakkur, poetik til, kompozitsion qurilish, badiiy detal, ramz va timsollardan foydalanish, muallif konsepsiyasi hamda estetik idealning ifodalanish xususiyatlari turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil etilgan[2]. O‘zbek adabiyotshunosligida ham ijodkor poetik mahorati masalalari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan[3]. Xususan, she’riyatning poetik xususiyatlari, badiiy tasvir vositalari, uslub, obraz yaratish tamoyillari hamda shoir individual mahoratini tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar salmoqli o‘rin egallaydi[4]. Sirojiddin Sayyid ijodini, lirikasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ham bir qator maqola-tadqiqotlar e’lon qilingan. O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ijodi haqida O.Sharafiddinov, N.Rahimjonov, A.Rasulov, N.Jabborov, A.Ulug‘ov, B.Karim va boshqa adabiyotshunoslar tomonidan ilmiy tadqiqotlar va maqolalar e’lon qilingan. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston xalq

[2] Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Наука, 1970. – С. 266; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Сов.писатель, 1963; Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976. – С. 484; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. – С. 404; Ковалев А.Г. Психология литературного творчества.– Ленинград, ЛГУ, 1960.

[3] Қўшжонов М. Ҳаёт ҳакикати ва бадиий ҳақиқат. – Тошкент: Фан, 1982. – 64 б; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти – Тошкент: Шарқ, 2004, - 640 б; Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан. 1983; Тўйчиев У. Бадиийлик мезонлари ва маромлари.-Тошкент: 2011; Карим Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015; Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан. 2006, - 201 б.

[4] Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007. – 133 б.; Н.Раҳимжонов. Бадиият – бош мезон. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 223 б.; Жабборов Н. Замон. Меъзон. Шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – 304 б. Ҳамдамов У. Янги ўзбек шеърияти. Тошкент. – Тошкент: Фан, 2011. – 304 б.

shoirlari A.Oripov, E.Vohidov, zamonaviy rus she’riyatining yetakchi vakillaridan biri Andrey Voznesenskiy kabi ijodkorlar shoir lirikasiga yuksak baho berganlar.

Sirojiddin Sayyidning 2018-yilda “Sharq” nashriyotida uch jildlik “Tanlangan asarlar”iga Ozod Sharafiddinovning “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi 1982-yil 29-oktabr sonida bosilgan “Shoirlikning og‘ir yuki” nomli maqolasi so‘zboshi sifatida olingan[5]. Unda munaqqid S.Sayyid she’riyatiga yuqori baho berib, uning kelajagiga yuksak ishonch bildiradi.

N.Rahimjonovning “Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati” kitobidagi “Dil manzillari (Sirojiddin Sayyid ijodiy portretiga chizgilar)”[6] deb nomlangan salmoqli portret-maqolasida Sirojiddin Sayyid lirikasi, mavzular doirasi, o‘ziga xos jihatlari tahlilga tortiladi.

Adabiyotshunos va munaqqid A.Rasulovning “Badiiylik – bezavol yangilik” [7] kitobida Sirojiddin Sayyid o‘zbek she’riyatining zabardast vakillari A.Oripov va E.Vohidovlar ijodining davomchisi sifatida e’tirof etiladi.

N.Jabborovning “Zamon. Mezon. She’riyat” kitobidagi “Ruhim xaritasi”dan “Dil fasli”gacha”, “Metaforaga boy she’riyat” maqolalari Sirojiddin Sayyid lirikasi tahliliga bag‘ishlangan[8]. Olim “Ruhim xaritasi” dan “Dil fasligacha” nomli maqolasida shoir ijodi uning ilk to‘plami chop etilgan vaqtdan maqola yozilgunga qadar bo‘lgan davrda yaratilgan bir nechta kitoblariga kiritilgan she’rlar misolida tadqiq qilinadi. Munaqqid Sirojiddin Sayyid faoliyati va shaxsiyatini yoritar ekan, uni milliy she’riyatimizda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkor ekanligini e’tirof etadi. Adabiyotshunos A.Ulug‘ovning “Vatan – jon va tan” nomli kitobida Sirojiddin Sayyidning Vatan mavzusidagi she’rlari tahlilga tortiladi.Ustoz shoir Abdulla Oripov she’rlari bilan qiyosan o‘rganiladi[9].

Adabiyotshunos Z.Pardayevning “Istiqlol davri she’riyatida xalqona pafosning yangilanishi” nomli dissertatsiyasida mustaqillik davri she’riyatining Usmon Azim, Matnazar Abdulhakim, Azim Suyun, Muhammad Yusuf, Abduvali Qutbiddin, Eshqobil Shukur, Rustam Musurmon kabi vakillari qatorida Sirojiddin Sayyid lirikasidagi xalqona ohanglar ham tahlilga tortiladi[10].

Tadqiqotchi G.I.Doshanovaning “Hozirgi o‘zbek she’riyatida kichik lirik shakllar takomili (Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir va Farida Afro‘z ijodi misolida)” mavzusidagi dissertatsiyasida Sirojiddin Sayyid lirikasidagi kichik lirik shakllarning janriy-poetik xususiyatlari, ularning badiiy takomili hamda shoirning zamonaviy o‘zbek she’riyati taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy jihatdan yoritilgan[11].

Tadqiqotchi Ra’no Payzullayevaning “Sirojiddin Sayyid ijodida Vatan obrazining poetik talqini” mavzusidagi dissertatsiyasida shoir lirikasida Vatan

---

[5] Шарафиддинов О. Шоирликнинг оғир юки // С.Саййид. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.6-9.

[6] Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. –Тошкент: Фан, – Б.260.

[7] Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.259.

[8] Жабборов Н. Замон .Мезон. Шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. Б.153-186.

[9] Улуғов А. Ватан – жон ва тан. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. – Б.64-81.

[10] Пардаев З. Истиқлол даври шеъриятида халқона пафоснинг янгиланиши. – Тошкент. 2020. – Б.45 .

[11] Doshanova G.I. Hozirgi o‘zbek she’riyatida kichik lirik shakllar takomili (Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir va Farida Afro‘z ijodi misolida). Filol.fan.bo‘yicha.fals.dok.(PhD) diss.avtoref. – Urganch, 2022. – 52 b.

obrazining badiiy talqini, uning poetik ifoda vositalari, milliy ruh, tarixiy xotira va vatanparvarlik g‘oyalarining badiiy-estetik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan[12].

O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy publitsistika sohasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda XX asr o‘zbek publitsistikasining rivojlanish tamoyillari, publitsistika nazariyasi va uning janrlari kabi masalalar qamrab olingan[13]. Ma’lum bir ijodkorlarning publitsistik qarashlari ham alohida planda olib o‘rganilgan[14]. Bugungi o‘zbek she’riyati xususidagi tadqiqotlarda bevosita va bilvosita Sirojiddin Sayyid ijodiga murojaat qilinadi va shoir lirikasidagi mavzu turfaligi, lirik obraz yaratish xususiyatlari, uning badiiy-estetik tafakkur rivojiga qo‘shgan hissasi, poetik qirralari tahlilga tortiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqotlar rejasiga muvofiq, “Zamonaviy o‘zbek adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon” mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sirojiddin Sayyid she’riyati va publitsistik asarlardagi individual o‘ziga xoslik, lirikasining mavzu ko‘lami, poetik obraz yaratish mahorati hamda publitsistik asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va adabiy-estetik ahamiyatini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Adabiyotshunoslikda ijodkor poetik mahorati masalasining nazariy asoslarini o‘rganish;

Sirojiddin Sayyid hayoti va ijodining o‘rganilish bosqichlarini hamda adabiyotshunoslikda bu xususda mavjud qarashlarni umumlashtirish;

Sirojiddin Sayyid she’riyatining mavzu ko‘lami, janriy xususiyatlari va badiiy-estetik qirralarini ko‘rsatish;

Shoir she’riyatida lirik qahramon ifodasi hamda poetik mushohada uyg‘unligining o‘ziga xos jihatlarini yoritish;

Shoir publitsistikasining janriy tarkibi, publitsistik maqolalari va esselarida ijtimoiy-falsafiy qarashlar ustuvorligini aniqlash;

Shoirning badiiy va publitsistik ijodini yaxlit holda o‘rganish asosida uning zamonaviy o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini belgilash.

---

[12] Payzullayeva R.M. Sirojiddin Sayyid ijodida Vatan obrazining poetik talqini. Filol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Jizzax, 2024. – 56 b.

[13] Тоғаев О. Ўзбек бадиий публицистикаси (назария ва маҳорат масалалари). – Тошкент: Фан, 1973. – 207 б. Худойқулов М.Ўзбек ҳажвий публицистикасининг шаклланиш тамойиллари (XIX аср охири – XX аср ўрталари ўзбек матбуоти материаллари асосида). Филол.фанлари доктори дисс.автореферати. – Тошкент, 2001. Досмуҳамедов Х. Журналистнинг касб одоби муаммолари: назарий-методик таҳлил (мустақиллик даври ўзбек матбуоти фаолияти мисолида. 1991-2008 йиллар) Филол.фанлари доктори дисс.автореферати. – Тошкент, 2007. Курбонова С. Ёзувчи публицистикасининг тараққиёт тамойиллари. – Тошкент: Муҳаррир, 2012. – 127 б.

[14] Султонов У. Чўлпоннинг адабий-эстетик қарашлари. Филол.фанлари номз. дисс.автореферати. – Тошкент, 1995. – Б.29. Саидов Ҳ. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти. Филол.фанлари номз. дисс.автореферати. – Тошкент, 1998. – 27 б. Йўлдошбекова С. Чўлпоннинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти. Филол.фан.номз.дисс.автореф. – Тошкент, 2002. – 30 б. Ғайипова Ҳ. Матназар Абдулҳакимнинг бадиий ва публицистик маҳорати. Фил.фан. бўйича фалс.доктори дисс.автореферати. – Тошкент, 2019. – 24 б.

Tadqiqot obyekti sifatida Sirojiddin Sayyidning to‘rt jildlik “Tanlangan asarlar”i tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Sirojiddin Sayyid lirikasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, poetik tafakkuri, lirik qahramon talqini, an’anaviylik va zamonaviylik munosabati, shuningdek, publitsistik ijodining badiiy-estetik qirralarini tadqiq etish tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, germenevtik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sirojiddin Sayyidning badiiy va publitsistik ijodi ilk bor o‘zaro uyg‘unlikda tadqiq etilib, shoir ijodida poetik tafakkur va publitsistik qarashlarning mushtarakligi ilmiy asoslangan;

shoir lirikasida turli mavzularning badiiy talqini milliy xotira, tarixiy tafakkur va istiqlol davri adabiy-estetik qarashlari bilan bog‘liq holda tahlil qilinib, uning individual uslubini belgilovchi poetik xususiyatlar aniqlangan;

Sirojiddin Sayyid she’riyatida lirik qahramon va muallif konsepsiyasining o‘zaro munosabati, falsafiy mushohadakorlik hamda poetik tafakkur ko‘lamining namoyon bo‘lish tamoyillari, ijodkor publitsistikasida badiiylik va publitsistiklik sintezi, esse janrining poetik imkoniyatlari hamda ijtimoiy-falsafiy qarashlar ifodasi tizimli ravishda yoritilgan;

Sirojiddin Sayyidning she’riy va publitsistik ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi badiiy tafakkur taraqqiyoti nuqtayi nazaridan baholanib, uning milliy adabiyot rivojiga qo‘shgan hissasi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Adabiyotshunoslikda ijodkor mahorati masalasining nazariy jihatlari asosida o‘zbek adabiyotshunosligida Sirojjiddin Sayyid ijodining o‘rganilishi tadrijiy tahlil etildi;

Sirojiddin Sayyidning she’riy va publitsistik ijodi kompleks ravishda tahlil qilinib, uning badiiy tafakkuri, individual uslubi hamda adabiy-estetik qarashlarining o‘ziga xos jihatlari yoritib berildi;

Sirojiddin Sayyid she’riyatidagi falsafiy mushohadakorlik, lirik qahramon konsepsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligining poetik ifoda tamoyillari asoslab berildi;

ijodkor publitsistikasining mavzu ko‘lami, janriy xususiyatlari, badiiy-publitsistik uslubi hamda esselarida ijtimoiy-falsafiy mavzularni yoritish mahorati yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma’lumotlarning adabiyotshunoslikka oid ishonchli ilmiy manbalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar va dissertatsiyalardan olinganligi, tadqiqot obyektini tashkil etuvchi Sirojiddin Sayyidning she’riy hamda publitsistik asarlarining bevosita tahlilga tortilganligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, qiyosiy-tipologik, biografik, tavsifiy-tahliliy va germenevtik yondashuvlardan foydalanilganligi, ilmiy xulosa va umumlashmalarning tahlil natijalariga asoslanganligi hamda olingan natijalarning ilmiy jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan tadqiqotlar bilan qiyosiy o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Sirojiddin Sayyidning badiiy va publitsistik ijodini zamonaviy adabiyotshunoslik metodlari asosida yaxlit tizimda o‘rganish orqali ijodkor mahorati, poetik tafakkur, lirik qahramon konsepsiyasi, an’anaviylik va zamonaviylik munosabati hamda badiiy publitsistikaning nazariy masalalariga oid ilmiy qarashlarni boyitish bilan belgilanadi. Tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar zamonaviy o‘zbek she’riyati va publitsistikasini o‘rganishga doir keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy manba vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Sirojiddin Sayyidning badiiy va publitsistik merosini o‘rganishga doir materiallardan oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek adabiyoti, hozirgi adabiy jarayon, adabiyot nazariyasi, adabiyotshunoslik metodologiyasi fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqotda tahlil qilingan she’r, esse, badia, adabiy portret va publitsistik maqolalarga doir xulosalar mazkur fanlardan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar, maxsus kurslar uchun o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlashda qo‘l keladi.

Tadqiqotning joriylanishi. Sirojiddin Sayyidning badiiy va publitsistik ijodida she'riy hamda publitsistik tafakkurning o‘ziga xosligi, milliy qadriyatlar, Vatanga muhabbat, insonparvarlik, ma'naviy-axloqiy qarashlarning badiiy talqini, shoir publitsistikasida davr muammolari, milliy o‘zlik va ma’naviy yuksalish masalalarining yoritilishi, shuningdek, badiiy tafakkur va publitsistik nigoh uyg‘unligi, obraz va fikr birligi, til va uslub mahoratiga doir ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Xorazm viloyati teleradiokanali tomonidan 2023–2026-yillarda efirga uzatilgan “Assalom, Xorazm”, “Adabiy muhit”, “Xayrli kun” eshittirish va teledasturlarini tayyorlash hamda mazmunan boyitishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Xorazm viloyati teleradiokanalining 2026-yil 18-iyundagi 78-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur ko‘rsatuvlarda Sirojiddin Sayyid ijodi, uning badiiy-estetik dunyoqarashi, publitsistik tafakkuri, milliy adabiy an'analarga munosabati hamda zamonaviy o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy asosda yoritilib, eshittirishlarning ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy-badiiy salmog‘i oshirilishiga xizmat qilgan.

Sirojiddin Sayyid ijodining badiiy va publitsistik xususiyatlari, shoir publitsistikasining g‘oyaviy-badiiy asoslari, milliy tafakkur, vatanparvarlik, ma’naviy qadriyatlar, tarixiy xotira hamda zamonaviy ijtimoiy-estetik qarashlarning badiiy talqini, shuningdek, she’riyat va publitsistikadagi badiiy obrazlar tizimi, uslubiy o‘ziga xoslik, publitsistik pafos va badiiy tafakkur uyg‘unligiga doir ilmiy xulosalardan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida 2024–2026-yillarda amalga oshirilgan IL-7623031203-raqamli “Janubiy Orolbo‘yi adabiy aloqalari antologiyasi” va uning elektron platformasini yaratish (o‘zbek, turkman va qoraqalpoq adabiy aloqalari asosida) mavzusidagi xalqaro innovatsion loyihada foydalanilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining 2026-yil 18-apreldagi 01-22-04/1336-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotning ilmiy xulosalari loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy tahlillarni nazariy jihatdan boyitish, zamonaviy o‘zbek adabiyotining badiiy va publitsistik jarayonlarini qiyosiy o‘rganish metodologiyasini takomillashtirish, Janubiy Orolbo‘yi adabiy aloqalarining badiiy-estetik asoslarini

yoritish hamda Sirojiddin Sayyid ijodining milliy adabiy tafakkur rivojidagi o‘rniga oid qarashlarni kengaytirishda muhim ilmiy manba vazifasini bajargan.

Sirojiddin Sayyid ijodining badiiy va publitsistik mahorati, shoirning individual uslubi, badiiy tafakkuri hamda publitsistik qarashlarining o‘ziga xos xususiyatlari, she’riy va publitsistik asarlarida Vatan, milliy qadriyatlar, ma’naviyat, tarixiy xotira, inson va jamiyat munosabatlarining badiiy hamda publitsistik talqini, shuningdek, badiiy mahoratning poetik mezonlari, publitsistik tafakkurning o‘ziga xos jihatlari, obraz va badiiy tasvir vositalarining qo‘llanishi, milliy g‘oya hamda umuminsoniy qadriyatlarning ifodalanish tamoyillariga doir ilmiy xulosalardan 2017–2020-yillarda bajarilgan PF-OT-F1-030-raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyasini (7-jild) chop etish nomli fundamental loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 31-iyuldagi 01/4-3516-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotning ilmiy xulosalari loyiha doirasida zamonaviy o‘zbek she’riyati va publitsistikasining taraqqiyot tamoyillarini yoritish, Sirojiddin Sayyid ijodining milliy adabiy jarayondagi o‘rni, badiiy mahorati va publitsistik tafakkurini ilmiy asosda baholash hamda ko‘p jildlik “O‘zbek adabiyoti tarixi” monografiyasining nazariy mazmunini boyitishda muhim ilmiy manba vazifasini bajargan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish e’lon qilingan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan. Tadqiqot natijalari bo‘yicha 5 ta ilmiy maqola va tezis xalqaro hamda respublika ilmiy-amaliy anjumanlar to‘plamlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Adabiyotshunoslikda ijodkor poetik mahorati masalasi va Sirojiddin Sayyid ijodining tadqiqi”** deb nomlangan bo‘lib, bobning birinchi fasli **“Adabiyotshunoslikda ijodkor mahorati masalasining nazariy asoslari”** deb ataladi.

Badiiy adabiyotning qimmati, mazmun teranligi, til va uslubining jozibadorligi, badiiy mukammalligi, obrazlarining hayotiyligi, kitobxon qalbi va tafakkuriga ta’sir etish darajasi hamda asarning umrboqiyligini, davrlar osha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay yashab kelishini belgilovchi muhim omillardan biri ijodkor mahoratidir. Ijodkorning hayotni teran anglashida, voqea-hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishida, oddiy kishilar ilg‘amagan ma’no va haqiqatlarni kashf eta olishida iste’dod asosiy omillardan biri hisoblanadi. Zero, san’atkorning badiiy kashfiyotlari, avvalo, uning iste’dodi va estetik tafakkuri bilan belgilanadi. “Muhim fikr, g‘oya, voqea, kechinmalarning tuzini topib olish hamma vaqt qiyin va hamma vaqt har kimga ham muyassar bo‘lavermaydi. Lekin katta iste’dod egalari topadi, o‘z ijodi uchun, zamondoshlar uchun, umuman, inson uchun muhim bo‘lgan hodisalarni topadi”[15]. Mazkur fikrdan anglashiladiki, ijodkor mahorati, avvalo, hayot materialini tanlash va undagi eng muhim ma’no qatlamlarini ilg‘ay olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. San’atkor voqelikdagi har qanday hodisani emas, balki zamon va inson uchun ahamiyatli bo‘lgan masalalarni badiiy tadqiq etadi. Demak, ijodkor mahoratining muhim belgilaridan biri hayot hodisalarini saralash va ularning badiiy mohiyatini kashf etishdan iboratdir. Darhaqiqat, adabiyot tarixiga nazar tashlansa, chinakam ijodkorlar hayotning ko‘zga tashlanmaydigan, biroq inson va jamiyat taqdirida muhim ahamiyat kasb etuvchi jihatlarini badiiy kashf etganliklari bilan ajralib turadi.

Ijodkor mahoratining yana bir muhim jihati hayot va inson haqidagi mushohadalarni falsafiy mazmunda ifodalay olish qobiliyati bilan belgilanadi. Badiiy asardagi falsafiylik voqea-hodisalarning mohiyatini teranroq ochishga, hayot haqiqatlarini umumlashgan holda talqin etishga xizmat qiladi: “Inson va zamon tabiatini badiiy tarannum etishda lirik qahramonning chuqur o‘y mushohadalari-yu, uning donishmandligidan tortib, shu donishmandlikni namoyon etuvchi obrazlar vositasidagi rang-baranglik, serqatlamlik, ko‘pma’nolilik, purhikmatlilik, bir so‘z bilan aytganda, falsafiylik shoir ijodining muhim belgisi sifatida namoyon bo‘ladi”[16]. Mazkur fikrdan anglashiladiki, falsafiylik ijodkor mahoratining muhim mezonlaridan biridir. Inson hayoti davomida turli voqea-hodisalar, murakkab hayotiy vaziyatlar, “yechilmas” muammolar bilan to‘qnash keladi, o‘z taqdiri bilan bog‘liq savollarga javob izlaydi, atrofida sodir bo‘layotgan jarayonlarning mohiyatini anglashga, o‘z o‘rni va maqsadini belgilashga intiladi.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Sirojiddin Sayyid ijodini tadqiq etishda ham mazkur nazariy qarashlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir she’riyatida falsafiy mushohadakorlik, obraz yaratish mahorati, milliy va umuminsoniy g‘oyalarning badiiy talqini, individual uslub, til jozibasi hamda poetik tafakkurning o‘ziga xos ko‘rinishlari yorqin namoyon bo‘ladi. “Sirojiddin she’rlarida insonning o‘z umri – tirikligi oldidagi mas’uliyati, hayotini ezgu ishlarga safarbar etish burchi, odamlar koriga yarashlikdek qat’iyat ijtimoiy-falsafiy mazmunni belgilab beradi”[17]. Darhaqiqat, Sirojiddin Sayyid she’riyatining yetakchi xususiyatlaridan biri inson va hayot masalalarining teran falsafiy mushohadalar asosida talqin etilishidir.

[15] Ғафуров И. Мангу латофат: Бадиалар, рисолалар: 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б.97.
[16] Назаров Б. Ижоднинг жон томири. – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2022. – Б.18.
[17] Раҳимжонов Н. Мустакиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.156.

Shoir asarlarida insonning ma’naviy kamoloti, Vatan oldidagi mas’uliyati, ezgulik va yaxshilikka sadoqati, hayotning mazmun-mohiyati bilan bog‘liq masalalar badiiy-falsafiy umumlashmalar darajasiga ko‘tariladi.

Yuqoridagi nazariy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijodkor mahorati adabiyotshunoslikning eng murakkab va ko‘p qirrali estetik kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Rus va o‘zbek adabiyotshunosligida olib borilgan ilmiy izlanishlar poetik mahoratni turli jihatlardan talqin qilsa-da, ularning barchasi ijodkorning hayot haqiqatini badiiy haqiqat darajasiga ko‘tara olish qobiliyati bilan bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi. Iste’dod, bilim, hayotiy tajriba, ijodiy izlanish, falsafiy tafakkur, obraz yaratish mahorati, an’ana va yangilik uyg‘unligi, badiiylik, individual uslub, til mahorati, badiiy detal, psixologizm, kompozitsion yaxlitlik hamda badiiy tasavvur kabi omillar ijodkor mahoratining tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Bobning ikkinchi fasli **“O‘zbek adabiyotshunosligida Sirojiddin Sayyid ijodining o‘rganilishi”** deb nomlangan. Sirojiddin Sayyid ijodining badiiy-estetik xususiyatlari, poetik tafakkuri va individual uslubini o‘rganishga bag‘ishlangan qator ilmiy maqola hamda tadqiqotlar yaratilgan. Shoir ijodi nafaqat kitobxonlar, balki adabiyotshunos olimlarning ham doimiy e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Xususan, O.Sharafiddinov, N.Rahimjonov, A.Rasulov, N.Jabborov, A.Ulug‘ov, B.Karim kabi adabiyotshunoslar tomonidan shoir ijodining turli qirralariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar va adabiy-tanqidiy kuzatishlar e’lon qilingan. Mazkur tadqiqotlarda Sirojiddin Sayyid she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, milliy ruh va zamonaviy tafakkur uyg‘unligi, poetik obrazlar tizimi, falsafiy mushohadakorligi hamda til va uslubiga oid masalalar tahlil etilgan.

N.Rahimjonovning “Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati” kitobidagi “Dil manzillari (Sirojiddin Sayyid ijodiy portretiga chizgilar)”[18] deb nomlangan salmoqli portret-maqolasida Sirojiddin Sayyid lirikasi, mavzular doirasi, o‘ziga xos jihatlari tahlilga tortiladi. Tadqiqotchi, avvalo, shoir lirikasining yetakchi mavzularini aniqlashga e’tibor qaratadi. Xususan, Vatan va millat taqdiri, tarixiy xotira, inson va zamon munosabatlari, tabiat tasviri, ma’naviy qadriyatlar, mehr-muhabbat hamda ezgulik g‘oyalari Sirojiddin Sayyid she’riyatining asosiy mazmuniy qatlamlarini tashkil etishi ilmiy asosda yoritiladi. N.Rahimjonov shoirning ushbu mavzularni an’anaviy talqin qilish bilan cheklanib qolmasdan, ularga yangicha poetik nigoh va falsafiy mushohada orqali yondashganligini alohida ta’kidlaydi. Maqolada Sirojiddin Sayyid she’riyatining muhim xususiyatlaridan biri sifatida uning samimiy va tabiiy lirik tafakkuri ko‘rsatiladi.

N.Jabborovning “Zamon. Mezon. She’riyat” kitobidagi “Ruhim xaritasi”dan “Dil fasli”gacha”, “Metaforaga boy she’riyat” maqolalari Sirojiddin Sayyid lirikasi tahliliga bag‘ishlangan[19]. Olim “Ruhim xaritasi” dan “Dil fasligacha” nomli maqolasida shoir ijodi uning ilk to‘plami chop etilgan vaqtdan maqola yozilgunga qadar bo‘lgan davrda yaratilgan bir nechta kitoblariga kiritilgan she’rlar misolida tadqiq qilinadi. Munaqqid Sirojiddin Sayyid ijodiy faoliyati va shaxsiyatini yoritar

[18] Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.260.

[19] Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б.153-186.

ekan, uni milliy she’riyatimizda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan adib ekanligini e’tirof etadi. Sirojiddin Sayyid poetikasining tadrijiy taraqqiyoti, mavzu va g‘oyalar ko‘lamining kengayishi, badiiy tafakkurining takomillashib borish jarayoni ochib beriladi. Maqolada Sirojiddin Sayyid she’riyatining yetakchi xususiyatlari sifatida milliy ruh, samimiy lirik kechinma, falsafiy mushohadakorlik va obrazli tafakkur alohida qayd etiladi. Tadqiqotchi shoirning inson qalbi, Vatan, tarix, tabiat va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq mavzularni o‘ziga xos badiiy talqin qilish mahoratini e’tirof etadi.

Adabiyotshunos A.Ulug‘ovning “Vatan – jon va tan” nomli kitobida Sirojiddin Sayyidning Vatan mavzusidagi she’rlari tahlilga tortiladi va ustoz shoir Abdulla Oripov she’rlari bilan qiyosan o‘rganiladi[20]. A.Ulug‘ov mazkur mavzuni tahlil qilish jarayonida Sirojiddin Sayyid she’riyatini o‘zbek adabiyotining yirik vakili Abdulla Oripov ijodi bilan qiyosiy aspektda o‘rganish orqali har bir ijodkorga xos asosiy jihatlarga e’tibor qaratadi. Sirojiddin Sayyid ijodining yetakchi xususiyatlaridan biri bo‘lgan she’riyatga cheksiz muhabbat va ijodiy fidoyilik masalasi “She’r ishtiyoqi” nomli maqolasida tahlil etiladi. Tadqiqotchi shoirning butun hayoti va tafakkuri she’riyat bilan chambarchas bog‘langanligini ta’kidlab: “Sirojiddin Sayyid hayotning ma’no-mazmunini she’rda ko‘radi” deya yozadi. Olimning fikricha, shoir uchun tevarak-atrofdagi har bir narsa ilhom manbayi bo‘lib xizmat qiladi, “qamchining dastasidan ham, piyolaning gardishidan ham she’r topadi”. Darhaqiqat, Sirojiddin Sayyid poetikasining muhim jihatlaridan biri bu badiiy nigohning o‘tkirligi va oddiy voqelik ortidan poetik ma’no kashf eta olish qobiliyatidir.

Yuqoridagi kitobga kiritilgan “Shoirlik mangu sabr...” nomli maqolasida ham Sirojiddin Sayyid poetikasining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Muallif shoir shaxsiyati va ijodi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratadi. U Sirojiddin Sayyidning butun borlig‘ida shoirona ruh mujassam ekanligini ta’kidlab: “Sirojiddin Sayyidni she’riyatga shaydolik shoirga aylantirgan. Shu boisdan uning qiyofasi, ovozidan ham, yurish-turishi, muomala-munosabatidan ham shoirona ruh bilinib turadi”, – deb yozadi. Maqolada Sirojiddin Sayyid ijodining mavzu ko‘lami kengligi alohida qayd etiladi. Olim shoir she’riyatida turli mavzular qalamga olinganini e’tirof etgan holda, Vatan mavzusi uning ijodida yetakchi o‘rin tutishini ta’kidlaydi: “Lekin Vatan shoir ijodida yetakchi mavzu sifatida ko‘rinadi”. A.Ulug‘ov shoirning Vatan haqidagi she’rlarini tahlil qilar ekan, ulardagi poetik yangilik va individual tasvir usullariga e’tibor qaratadi. Tadqiqotchi Sirojiddin Sayyid Vatanni “sog‘inchning zangor osmoni”, “soylarga soya solgan mijgon”, “momolar to‘y qilgan ayvon” kabi mutlaqo yangi va betakror tashbehlar orqali tasvirlashini qayd etib, “Bunday ta’rif-u tavsiflar boshqa shoirlar she’rlarida uchramaydi” deya ta’kidlaydi.

Adabiyotshunos Namuna Nazarovaning “Sirojiddin Sayyid she’rlarida “qo‘rg‘on” timsoli”[21] nomli maqolasida shoir poetikasidagi milliy obrazlar tizimi va ularning badiiy-estetik vazifasi tadqiq etiladi. Muallif Sirojiddin Sayyid ijodida milliy ruhiyatni aks ettiruvchi ayvon, erganak, ustun, chopon, beshik, do‘ppi, rayhon, ostona, tegirmon, qumg‘on, qo‘rg‘on kabi detal-obrazlar faol qo‘llanishini ta’kidlab, ular

[20] Улуғов А. Ватан – жон ва тан. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. – Б. 64-81.

[21] Nazarova N. Sirojiddin Sayyid she’rlarida “qo‘rg‘on” timsoli // O‘zbek tili va adabiyoti, 2023. 6-son. – B. 83-86.

zamirida o‘zbek xalqining turmush tarzi, qadriyatlari va ma’naviy dunyosi mujassamlashganligini qayd etadi. Tadqiqotchining fikricha, mazkur milliy detallar shoir badiiy tafakkuri ta’sirida yangi poetik ma’no va obrazlar hosil qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqotchi Ra’no Payzullayevaning “Sirojiddin Sayyid ijodida Vatan obrazining poetik talqini” mavzusidagi tadqiqotida ijodkorning o‘zbek she’riyatidagi o‘ziga xos badiiy-estetik o‘rni alohida baholanadi. Tadqiqotchi mustaqillik davri she’riyatida shakl va mazmun uyg‘unligi, poetik obraz yaratish mahorati haqida so‘z yuritar ekan, Sirojiddin Sayyid ijodini milliy va umuminsoniy qadriyatlarning badiiy sintezi sifatida talqin qiladi. Xususan, olima shoirning “Hayot qo‘shig‘i”, “Bu dunyoda” kabi asarlarini falsafiy-ijtimoiy yo‘nalishning yetuk namunalari sifatida baholab, ularda fikriy teranlik, ijtimoiy mazmundorlik hamda umuminsoniy g‘oyalarning badiiy ifodasi mujassam ekanligini ta’kidlaydi.

Umuman, istiqlol davri o‘zbek adabiyotshunosligida Sirojiddin Sayyid lirikasiga, uning badiiy-publitsistik ijodiga qiziqish tobora kengaymoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Shoir lirikasining mavzu ko‘lami va poetik tafakkur talqini”** deb nomlangan bo‘lib, bobning birinchi fasli **“Shoir lirikasida mavzu rang-barangligi va g‘oyaviy-badiiy izlanishlar”** deb ataladi. XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi o‘zbek she’riyati taraqqiyotida Sirojiddin Sayyid o‘zining xalqchil ruhga yo‘g‘rilgan, yuksak badiiy tafakkur mahsuli bo‘lgan asarlari bilan alohida o‘rin egallaydi. Shoir ijodining muhim jihatlaridan biri shundaki, unda milliy ruh, xalqona ohang va zamonaviy poetik tafakkur uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Shu bois Sirojiddin Sayyid she’riyati kitobxon qalbiga yaqinligi, samimiyligi hamda hayotiyligi bilan ajralib turadi. Shoir lirikasini mavzu ko‘lamini quyidagicha guruhlash mumkin: 1) Vatan mavzusidagi; 2) tarix va tarixiy shaxslar; 3) ona; 4) ishq-muhabbat; 5) urush va qatag‘on; 6) tabiat va inson; 7) ijtimoiy-falsafiy va boshqa mavzulardagi. Shoir lirikasi janriy jihatdan ham rang-barang bo‘lib, lirik she’rlar, bag‘ishlov she’rlari, marsiyalar, dostonlar, balladalar, to‘rtliklar, muxammaslar, musaddaslar, erkin she’rlar, she’riy turkumlar hamda boshqa poetik shakllarni o‘z ichiga oladi.

Sirojiddin Sayyid ijodida Vatan timsoli alohida poetik mazmun kasb etadi. Uning “Bug‘doybo‘y Vatan”, “Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni”, “Onamning kulchalari” kabi to‘plamlaridan o‘rin olgan she’rlarda Vatan obrazi inson qalbi, ona mehri, xalq qadriyatlari va milliy xotira bilan uyg‘un holda tasvirlanadi. “Vatanni anglash” she’rida:

Shabnam-shabnam tonglarda
jayronlarga aylangan,
Onang suvlar sepganda
rayhonlarga aylangan,
Bir kechada sog‘inching
osmonlarga aylangan,
Sog‘inchlaringday zangor
osmonlari Vatandir[22].

[22] Sirojiddin Sayyid. Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni. – Toshkent: Sharq, 2015. – B. 8.

- Vatanni inson qalbiga yaqin va musaffo tuyg‘ular bilan birlashtirib, milliy koloritni kuchaytirishga erishadi. tasvirlaydi. Jayron, osmon, ona sepgan suv timsollari orqali Vatanni ona mehri va bolalik xotiralari bilan uyg‘un holda tasvirlaydi. Vatan tuyg‘usining ana shunday lirik-falsafiy talqini o‘zbek she’riyatining yirik vakili Abdulla Oripov ijodida ham o‘ziga xos badiiy ifodasini topgan. Xususan, shoirning “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?!” she’rida Vatanga muhabbat tuyg‘usi, Vatan timsolini quyidagicha tasvirlaydi:

Men nechun sevaman O‘zbekistonni,
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo.
Nechun Vatan deya yer-u osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho[23].

Ko‘rinadiki, shoir uchun tuproq – Vatan timsoli, shuning uchun ham ko‘zga to‘tiyo qilinadi, yer-u osmoni muqaddas va tanho. Sirojiddin Sayyid shabnam, suv, rayhon, jayron singari detallar vositasida Vatan obrazini chizsa, Abdulla Oripov esa tuproq, yer, osmon, quyosh va bog‘ kabi tushunchalarni she’r qatiga singdiradi. Umuman olganda, har ikkala shoir Vatanni tabiat bilan yaxlit holda tasavvur qiladi, ularning Vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi samimiy va sodda, biroq betakror tasvirlarga boy.

Sirojiddin Sayyid she’riyatida tarix mavzusi xalqning og‘riqli xotiralari, millat boshidan kechgan fojeali davrlar hamda haqiqat uchun kurashgan insonlar qismati bilan uyg‘un holda talqin etiladi. Ayniqsa, XX asrning qatag‘on yillari bilan bog‘liq she’rlarida xalq boshiga tushgan zulm, inson erki va haqiqatning oyoqosti qilinishi teran poetik ifoda topadi. Ijodkor totalitar tuzum davrida begunoh insonlar, ayniqsa, millatning fidoyi ziyolilari va ijodkorlari qanday ayanchli qismatga duchor bo‘lganini qisqa, ammo nihoyatda ta’sirchan satrlar orqali ochib beradi. Shoirning “XX asr. Qatag‘on yillari” nomli she’ri ana shunday tarixiy fojeaning poetik ifodasidir:

Bir kunda sotildilar
Otilmagan shoirlar.
Bir tunda otildilar
Sotilmagan shoirlar[24].

Sirojiddin Sayyidning “450 000 lola” she’ri Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan o‘zbek o‘g‘lonlari xotirasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda urush fojeasi, yo‘qotish va tarixiy xotira masalalari yuksak poetik mahorat bilan badiiy talqin etiladi. Shoir she’r davomida urushda qurbon bo‘lgan insonlarni millatning armoni, xalqning uzilgan nafasi, so‘ngan umidlari sifatida tasvirlaydi. Ayniqsa, “450 000 lola” obrazi she’rning markaziy poetik timsoliga aylanadi. Shoir urushda halok bo‘lgan o‘zbek yigitlarini “lola”ga qiyoslaydi:

Yot ellarda sochilgan
To‘rt yuz ellik ming lola.

Sharq she’riyatida lola obrazi ko‘pincha yoshlik, go‘zallik, poklik va fojea ramzi sifatida qo‘llanadi. Ijodkor aynan shu timsol vositasida urush qurbonlarining navqiron umrini, ochilmay qolgan, armonga aylangan orzularini ta’sirchan ifodalaydi.

[23] Oripov A. Tanlangan asarlar. To‘rtinchi jild. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2000. – B.171.
[24] Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.351.

Bu yerda lola oddiy gul emas, balki ona Vatanning uzilib ketgan bo‘laklari, “bo‘stonidan ayrilgan g‘unchalari” sifatida poetik mazmun kasb etadi.

“Sariosiyoda she’riyat kechasi” nomli she’rida ijodkor kindik qoni to‘kilgan yurtda she’r o‘qish baxtiga muyassar bo‘lganini alohida mamnuniyat bilan tasvirlaydi. Darhaqiqat, inson uchun o‘zi voyaga yetgan maskanda e’tirof etilish, xalqining mehrini his qilish ulkan ma’naviy saodatdir. Shoir ushbu ruhiy kechinmalarni samimiy va xalqona ohangda ifodalaydi:

Hamma hikmat asli tog‘-u toshda ekan,
Bu dunyoda kim ochu kim oshga ekan.
Kezib ko‘rdim Eronlar-u Olmonlarni,
O‘z yeringda she’r o‘qimoq boshqa ekan[25].

Shoir ifodalaganidek, har bir inson uchun o‘zi yashab ulg‘aygan tuproq, uning tog‘-u toshlari muqaddas va qadrli hisoblanadi. Inson dunyoning turli o‘lkalarini kezishi mumkin, biroq kun kelib o‘z yurti, o‘z odamlari va bolalik xotiralari sog‘inchi qalbini chulg‘ashi tabiiy hol. Shu bois shoir uchun ham o‘z eli davrasida, o‘zi e’zozlaydigan insonlar orasida she’r o‘qish alohida ma’naviy zavq bag‘ishlaydi. Darhaqiqat, Sirojiddin Sayyid uzoq yillar davomida ijod bilan yashab, xalq qalbidan joy olgan go‘zal asarlar yaratdi. Shu ma’noda shoir umrining o‘zi ham mazmun va ma’naviyat bilan yo‘g‘rilgan betakror she’riyat kechasini eslatadi.

Bobning ikkinchi fasli **“Lirik qahramon ifodasi va poetik mushohada uyg‘unligi”** deb nomlangan. Sirojiddin Sayyid yaratgan poetik obrazlar va lirik qahramon xarakterida ijodkorning individual tafakkur tarzi, hayotni estetik idrok etish salohiyati hamda falsafiy mushohada ko‘lami yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoir ko‘pincha oddiy hayotiy hodisalar zamiridan teran ma’naviy-falsafiy ma’nolar kashf etadi. Uning she’riyatida poetik tafakkur va ruhiy kechinma o‘zaro uyg‘unlashib, lirik qahramonning ichki dunyosini ochishga xizmat qiladi.

Sirojiddin Sayyid she’riyatida poetik tafakkur va lirik qahramon ruhiyati o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Shoirning ko‘plab she’rlarida lirik “men” orqali ijodkorning ichki kechinmalari, hayot va ijod haqidagi falsafiy mushohadalari poetik umumlashma asosida ifoda etiladi. Ayniqsa, shoirning “Dil” she’rida ijod va iste’dod masalasi lirik qahramon ruhiyati bilan uyg‘unlashgan holda talqin qilinadi:

Xudo menga bergan nolam
Siyoh – qoni bilan kelgan.

Xudo menga bergan qalam
Siyohdoni bilan kelgan[26].

Mazkur misralarda lirik qahramonning ijodga bo‘lgan munosabati teran falsafiy mazmun kasb etadi. Shoir “nola” obrazini “siyoh-qon” bilan bog‘lash orqali ijodning oddiy mashg‘ulot emas, balki qalb iztirobi va ruhiy kechinmalar evaziga yuzaga kelishini poetik ifodalaydi. Bu o‘rinda “siyoh-qon” birikmasi ramziy ma’no kasb etib, ijodkorning ichki og‘riqlari, ruhiy izlanishlari va qalb haroratini anglatadi.

[25] Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.234.
[26] Sirojiddin Sayyid. Onamning kulchalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B.91.

She’rda “qalam” va “siyohdon” obrazlari ham poetik tafakkurning muhim timsollaridan biri sifatida gavdalanadi.

“Qisqa satrlar” turkumidagi ayrim she’rlarida Sirojiddin Sayyid lirik qahramon ruhiyatini nihoyatda ixcham, ammo ta’sirchan poetik shaklda ifodalashga muvaffaq bo‘ladi. Shoirning quyidagi misralari buning yorqin namunasi hisoblanadi:

Men dardni hech kimdan
Ko‘chirmadim, yo‘q,
Yozganimdan ko‘ra
O‘chirganim ko‘p.

Mazkur satrlarda lirik qahramonning ijodga bo‘lgan mas’uliyat hissi va ichki ruhiy kechinmalari teran poetik mushohada asosida ifodalangan. Shoir “dard” tushunchasini oddiy hissiy holat sifatida emas, balki ijodning ruhiy manbayi darajasida talqin qiladi.

Sirojiddin Sayyid she’rlarida insoniylik, mehr-oqibat va ma’naviy poklik masalalari teran poetik tafakkur asosida yoritiladi. Shoir qisqa, ammo mazmunan chuqur satrlar orqali inson qalbiga ezgulik urug‘larini qadashga intiladi:

Yaxshilik qil – el-u yurting,
Do‘st-u yor-u begonaga yaxshilik qil.
Eng avvalo – o‘z onangga,
Hech bo‘lmasa – o‘z onangga o‘xshaydigan bir onaga
Yaxshilik qil!

Lirik qahramon insonni yaxshilik qilishga undaydi. Bu yaxshilikning qamrovi esa nihoyatda keng tasvirlanadi: elga, yurtga, do‘stga, begona insonga va eng avvalo, onaga yaxshilik qilish g‘oyasi ilgari suriladi. She’rning poetik ta’sir kuchi, ayniqsa, ona obraziga murojaat qilingan misralarda yanada chuqurlashadi.

Chinakam shoir – ko‘ngil tarjimoni. Zero, Sirojiddin Sayyid yaratgan har bir satrda uning ko‘ngli namoyon:

Kuy tinglab ko‘ngilning nayidan, ketdik,
Gul dedik, ko‘ngilning ra’yidan ketdik.
Ko‘ngillar mehridan paydo bo‘ldigu
Bir umr ko‘ngilning payidan ketdik[27].

Ma’lumki, dunyoda mushtarak dillar bor ekan mushtarak dardlar ham bisyor. Shu bois ijodkor yaratgan misralar minglab ko‘ngillar dardini aks ettiradi, ularni bir nuqtaga – hamdardlik nuqtasiga jamlaydi. Bunga erishish esa juda mushkul. Sirojiddin Sayyidning mahorati shundaki, uning asarlarida ko‘plab insonlarning ko‘ngli mujassamlashgan va bu she’rlar mutolaasi orqali o‘sha hamdard insonlar o‘zaro tillashadilar, dardlashadilar, muallif – shoir ularga sirdosh bo‘ladi, satrlar jonlanadi va bu ijod mahsullari jonli she’riyatga aylanadi.

Sirojiddin Sayyid yaratgan poetik obrazlar va lirik qahramon xarakterida ijodkorning individual tafakkur tarzi, hayotni estetik idrok etish salohiyati hamda falsafiy mushohada ko‘lami yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoir ko‘pincha oddiy hayotiy hodisalar zamiridan teran ma’naviy-falsafiy ma’nolar kashf etadi. Natijada uning she’riyatida poetik tafakkur va ruhiy kechinma o‘zaro uyg‘unlashib, lirik

[27] Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.363.

qahramonning ichki dunyosini ochishga xizmat qiladi. Sirojiddin Sayyid she'riyatida lirik qahramon quyidagi qiyofalarda namoyon bo‘ladi: a) vatanparvar inson; b) ota; d) farzand; e) oshiq; f) do‘st; g) shoir.

Umuman, shoirning poetik tafakkur miqyosi kengligi, obraz yaratishdagi o‘ziga xos mahorati, falsafiy umumlashmalarga boy poetik mushohadalari hamda lirik qahramon ruhiyatini chuqur ochib bera olishi uning zamonaviy o‘zbek she'riyati taraqqiyotidagi muhim o‘rnini belgilaydi. Shoir oz so‘z vositasida katta ma'no ifodalash, hayot haqidagi murakkab falsafiy qarashlarni sodda, ammo ta'sirchan poetik shaklda yetkazishga muvaffaq bo‘ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Sirojiddin Sayyid ijodida badiiy publitsistikaning o‘rni”** deb nomlangan bo‘lib, bobning birinchi fasli **“Publitsistik yo‘nalish va badiiy talqin mushtarakligi”** deb ataladi.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida yaratilgan badiiy publitsistik asarlar mazmun-mohiyati, g‘oyaviy yo‘nalishi va janriy-uslubiy xususiyatlari bilan alohida ilmiy tadqiqot obyekti bo‘la oladi. Bu davr ijodkorlari tomonidan yaratilgan publitsistik namunalar jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy o‘zgarishlarni aks ettirishi, davr ruhini ifodalashi hamda muallifning hayotiy pozitsiyasini namoyon etishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan aytish mumkinki, mavzu va obrazlar ko‘lami keng bo‘lgan Sirojiddin Sayyid ijodida ham badiiy publitsistikaning turli janrlariga mansub asarlar salmoqli o‘rin egallaydi. Shoir publitsistik ijodini mavzu va g‘oyaviy yo‘nalishiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Vatan va istiqlol mavzusidagi;
2. Adabiyot namoyandalari hayoti va ijodiga bag‘ishlangan maqolalar;
3. Adabiy suhbat va intervyular;
4. Tarixiy mavzudagi esselar;
5. Urush va tinchlik mavzusidagi asarlar;
6. She'riyat va shoirlik falsafasiga bag‘ishlangan publitsistik maqolalar.

Sirojiddin Sayyid publitsistik ijodi nafaqat mavzu doirasining kengligi, balki janriy rang-barangligi bilan ham ajralib turadi. Ijodkor publitsistik asarlarida zamonaviy badiiy publitsistikaning turli janrlaridan samarali foydalangan. Janriy xususiyatiga ko‘ra uning publitsistik ijodini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Esse (badia) janridagi asarlar;
2. Portretga chizgi va portret-maqolalar;
3. Suhbat va intervyular;
4. Publitsistik maqolalar.

Shoirning publitsistik faoliyatdagi dastlabki jiddiy qadami 1992-yilda nashr etilgan “Mehr qolur, muhabbat qolur” kitobi bilan bog‘liqdir. Mazkur to‘plamdan muallifning badia va maqolalari o‘rin olgan bo‘lib, unda ijodkorning hayot, inson va jamiyat haqidagi publitsistik qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Ijodkorning “Men ketarman ayta-ayta oxiri”, “Jevachining o‘g‘li”, “Xayr endi, bahorim”, “Yashasin yomg‘irlar!”, “Ortda qolgan iz”, “Shoirlik va shoirchilik”, “She'riyatda “kalla” masalasi”, “Mening ham barglarim to‘kilayotir”, “Jozib jununlar”, “Ey, menga daryoday dil bergan Vatan”, “O‘z otangning eshigi yoxud vatan haqida qanday yozmoq kerak”, “Mutolaa “tulpori”, “O‘lmas Umarbekov ko‘chasi”,

“Vatanni o‘rganish (Ustoz Shukur Xolmirzayev saboqlari)”, “Assalom, qurol! Alvido, qurol!”, “Bir mutarjim xokisor”, “Ikki asr – bir hayot”, “Sog‘inchlar ro‘znomasi” kabi ko‘plab publitsistik asarlari ham ushbu to‘plamlardan o‘rin olgan. Mazkur maqola, esse, xotira va portretga chizgilarda muallifning hayotiy kuzatuvlari, ijtimoiy-estetik qarashlari hamda inson va davr haqidagi mushohadalari badiiy tafakkur bilan uyg‘un holda ifodalangan. Shu jihatdan qaralganda, shoirning publitsistik ijodida ham obraz yaratish mahorati, fikr teranligi va uslubiy o‘ziga xosligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Sirojiddin Sayyidning “Vatan barchamizga buyuk onadir” nomli badiasida muallifning hayotiy tajribasi, bolalik xotiralari va milliy o‘zlik haqidagi qarashlari mujassamlashgan. Ushbu badia avtobiografik xarakterga ega bo‘lib, unda muallifning hayot yo‘li, bolalik xotiralari, oilaviy muhit hamda Vatan haqidagi falsafiy qarashlarini oochib beradi. Ushbu badianing e’tiborga molik jihatlaridan biri uning kompozitsion qurilishidir. Maqola “Birinchi so‘z”, “Bolalikning davlat madhiyasi”, “Yig‘lama, bolam, hozir yetib kelamiz...”, “Yangi daftar va siyoh isi. Yillar va egatlar”, “Mehnat imtihoni. Birinchi maosh”, “Budapesht. Budapesht!”, “Chayladagi oq bulut”, “Onamning xolasi”, “Tog‘ boshidagi tuman. Qodir boboning duosi”, “Ellik yilda el yangi...”, “Yozsang bug‘doyni yoz...” kabi o‘n uchta kichik sarlavhalardan iborat. Har bir sarlavha muallif hayotining muayyan davrini yoritish bilan birga muallifning bolalikdan kamolot sari bosib o‘tgan hayot yo‘li hamda Vatan haqidagi falsafiy qarashlarini bosqichma-bosqich ochib beradi.

Sirojiddin Sayyid ijodida adabiy-tanqidiy maqolalarning, ayniqsa, portret-maqola janrining salmoqli o‘rin egallashi kuzatiladi. Ijodkor Shukur Xolmirzyev, Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Erkin A’zam, Abdulla Oripov, O‘lmas Umarbekov kabi adabiyot namoyondalari, shuningdek Sherali Jo‘rayev singari san’atkorlarga bag‘ishlangan portret-maqola va portretga chizgilar yaratgan. Mazkur asarlarda portret egalarining ijodiy salohiyati, ma’naviy qiyofasi hamda adabiy-estetik dunyosi badiiy mushohada asosida yoritiladi.

Shoirning portret-maqolalarida badiiy pafos, poetik ohang va hissiy-ekspressiv talqin yetakchi o‘rin egallaydi. Muallifning she’riy tafakkurga xos ifoda usuli mazkur janr namunalarining ham uslubiy xususiyatini belgilab beradi. Xususan, Halima Xudoyberdiyeva siymosini yoritishda publitsistik bayondan ko‘ra ko‘proq poetik tasvirlar yaqqol namoyoon bo‘ladi. “Oq olmalar” maqolasining sarlavhasidayoq ramziy obraz orqali shoira tabiatining musaffoligi va pokligi ifodalanadi. Sirojiddin Sayyid portret-maqolalarida biografik bayondan ko‘ra lirik mushohada va muallifning individual estetik munosabati ustuvorlik qiladi. Sirojiddin Sayyid o‘z publitsistik asarlarini bejizga “Nasriy ohanglar” deb nomlamagan. Chunki mazkur asarlarda nasriy bayon bilan she’riy tafakkurni uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos ohangdor va obrazli ifodalashga intiladi.

Sirojiddin Sayyidning adabiy portret yaratishdagi individual uslubi Erkin Vohidovga bag‘ishlangan “Mehriyat va she’riyat” maqolasida ham izchil davom ettiriladi. Muallif Erkin Vohidovning: “Ukam Sirojiddinga Oybek kamolatini tilayman”[28] deya “Yoshlik devoni”ga yozgan dastxatini eslarkan, Erkin Vohidov shaxsiyati va ijodiy olamiga yuqori baho beradi: “Erkin Vohidov she’riyati – o‘zbek

[28] Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. – Т.: “Шарқ”, 2018. – Б.434.

adabiyotining beminnat quyoshlari ziyosidan bahramand bo‘lgan, Sharq mumtoz she’riyati havosini simirib barg yozgan, bo‘y cho‘zgan va bugungi kunda qadd-u qomatini ustuvor ko‘rsatib turgan muhtasham she’riyat. Bu o‘rinda ikki harf o‘zgartirilsa, maqsad yanada oydinlashadi: MEHRIYAT”[29]. Ko‘rinadiki, Sirojiddin Sayyid Erkin Vohidovningning badiiy olamini o‘ziga xos tarzda takrorlanmas ta’riflar orqali ochib beradi. Maqola yakunida “Yoshing necha deb so‘ramangiz, Yoron-u ahli dil. Erkin Vatan yoshi mening Yoshim hisobidir”[30] misralarining keltirilishi ham bejiz emas. Sirojiddin Sayyid ushbu satrlar talqini orqali Erkin Vohidov shaxsiyati va uning butun ijodiy merosini istiqlol g‘oyasi, yurt ozodligi va millat erkining badiiy ifodasi sifatida umumlashtirilgan.

Bobning ikkinchi fasli **“Shoir esselarida ijtimoiy-falsafiy qarashlar ifodasi”** deb nomlangan. Yozuvchi-ijodkorlarning adabiyot, san’at, jamiyat va inson haqidagi estetik hamda ijtimoiy qarashlari, avvalo, ularning badiiy va publitsistik ijodida o‘z ifodasini topadi. Sirojiddin Sayyid publitsistik ijodining muhim xususiyatlaridan biri unda ijtimoiy-falsafiy mushohadalarning yetakchi o‘rin egallashidir.

Urush mavzusi jahon va o‘zbek adabiyotining dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Sirojiddin Sayyid ijodida ham ushbu mavzu alohida o‘rin tutadi. “Kundajuvozdan Berlingacha” essesida Ikkinchi jahon urushi voqealarining insoniyat xotirasida mangu saqlanib qolgan fojiasi haqida yozadi. Esse eski fotosurat tasviri bilan boshlanadi. Muallif Mirzoakramning urush tugagani haqidagi Berlindan yuborgan “oq xat”i haqida yozadi. Urush tugagan bo‘lsa-da, qancha insonlar taqdiri hali noma’lumligicha qolganini qayg‘u va alam bilan eslaydi. Sirojiddin Sayyid ushbu esseda urushning inson ruhiyatida qoldirgan bitmas izlarini tasvirlashga ko‘proq e’tibor qaratadi. Muallif “oq xat” va xalq orasida keng qo‘llanilgan “qora xat” tushunchalarini qarama-qarshi qo‘yish orqali hayot va o‘lim, umid va armon, yorug‘lik va zulmat o‘rtasidagi falsafiy ziddiyatni tasvirlaydi. Urush mavzusi Sirojiddin Sayyidning “Kundajuvozdan Berlingacha”, “Assalom, qurol! Alvido, qurol!”, “Ivanboy do‘xtirning yaxshiligi”, “Narziqul tog‘aning kelishi va ketishi”, “20 million. 30 million. 100 million”, “Elmirza Sultanovning uch qabri” kabi bir qator esselarida o‘z aksini topgan.

Sirojiddin Sayyidning “Shoirlik va shoirchilik” turkum esselari kompozitsiyasi ham o‘ziga xos, muallif uni “Dars” deya izohlaydi. Turkum tarkibiga kiruvchi “She’riyatda kalla masalasi”, “O‘z otangning eshigi yoxud Vatan haqida qanday yozmoq kerak”, “Mutolaa tulpori”, “Mening ham barglarim to‘kilayotir” kabi esselar mazmunan mustaqil bo‘lsa-da, ularni birlashtirib turuvchi asosiy g‘oya – ijodkor mas’uliyati, shoirlikning mohiyati va badiiy so‘zning qudrati masalasidir. Ularda muallifning badiiy ijod haqidagi qarashlari jamlangan. Muallif essening kirish qismida talabalarga dars o‘tish maqsadida taklif qilinganini, “Mening o‘rtoqlashadigan, o‘rgatadigan tajribam bormikan? O‘zim shunga ehtiyojmand bo‘lsam, tajriba haqida gapirishim kulguli ko‘rinmaydimi? So‘zga, she’rga muhtoj bo‘la turib so‘z haqida, she’riyat, shoirlik xususida shakarguftorlik qilishim, aql o‘rgatishim juda g‘alati-

[29] Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. – Т.: “Шарқ”, 2018. – Б.435.
[30] Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. – Т.: “Шарқ”, 2018. – Б.446.

da…”[31], - deydi va bu essesida shoir o‘ziga yoqqan, ta’sir etgan gaplar, misollarni, shuningdek, o‘zini qiynab yurgan mulohazalarini yozganini ta’kidlaydi. Jumladan, “She’riyatda “kalla” masalasi” qismida 40 yil oldingi voqeani eslab, she’riyat, shoirchilik masalasidagi teran fikrlarini bayon etadi. Adabiyotga tasodifan kirib kelayotgan, kitob mutolaasidan yiroq, badiiy did va estetik tafakkurdan mahrum kishilarni tanqid qiladi: “…adabiy jarayon deb atalmish beorom, behalovat bir ummon qa’rida, girdi-atrofida shundoq holatlar ham avjlanib borayotganini, milliy nazokat, bobolardan ijod yuksak did-farosatga mutlaqo zid ekanini, ma’naviyatga, yoshlarning axloqi, tarbiyasiga aks ta’sir etayotganini tan olmasdan ilojimiz yo‘q”[32]. Darhaqiqat, adabiy muhitda yengil-yelpi ijod namunalarining ko‘payishi, avvalo, yosh kitobxonlarning dunyoqarashlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Sirojiddin Sayyid shoirlik haqida fikr bildirar ekan, betakror, shoirona o‘xshatishlarni qo‘llaydi. Xususan, “O‘z otangning eshigi yoxud Vatan haqida qanday yozmoq kerak” essesida shoirlikka shunday ta’rif beradi: “Shoirlik, agar uni Xudo taqdir qilgan bo‘lsa, ota uydan, o‘z otangning eshigidan boshlanadi”[33]. Darhaqiqat, shoirlik tug‘ma iste’dod mahsuli bo‘lib, u har kimga ham nasib etavermaydi. Biroq iste’dodning o‘zi haqiqiy shoirni shakllantirish uchun yetarli emas. Uni oilaviy muhit, tarbiya, milliy qadriyatlar, tug‘ilib o‘sgan makon va hayotiy tajriba kamolga yetkazadi. Muallif jilg‘alarni shoirlikning qon tomiriga qiyoslaydi. She’riyatni esa xuddi Vatan kabi hamma tushunishi, anglashi kerakligini ilgari suradi: “Alqissa, she’riyat nima? Bir yillar Andijonda bir to‘y bo‘lgan edi. Kelinchakni olib chiqayotganda qizlar bundoq “Yor-yor” aytishuvdi:

O‘z otangning eshigi
Ifor eshik, yor-yor.
O‘tsang-ketsang sochlaringni
Silar eshik, yor-yor.

She’riyat shudir. Andijonda ham, Surxondaryoda ham aytsangiz tushunishadi buni. Xuddi Vatan kabi”[34]. Shoir mahorati shundaki, oddiy misollar yordamida barcha uchun birdek tushunarli teran mushohadalar yuritadi. Muallifning she’riyat va so‘z qudrati haqidagi mulohazalari O‘tkir Hoshimovning “Ummondagi xazina” essesi bilan ma’lum ma’noda mushtaraklik kasb etadi. Adib essesida so‘z san’ati, ijodkor mas’uliyati kabi masalalar tilga olinib: “So‘z qudratli, ta’sirchan va mas’uliyatli qurol”[35] deya ta’kidlanadi. Muallif nazarida yozuvchi qo‘lidagi eng katta boylik iste’dod emas, balki so‘zni o‘rinli tanlash va undan mas’uliyat bilan foydalanish mahoratidir. O‘tkir Hoshimov ham tabiat tasviriga to‘xtalib, ular qahramon ruhiyati bilan uyg‘unlashgandagina haqiqiy san’at yuzaga kelishini ta’kidlaydi. Masalan, bir xil tabiat manzarasi turli ruhiy holatlarda mutlaqo boshqa ma’no kasb etishini ko‘rsatib, “Bir manzaraning o‘zi qahramon ruhiyatidan kelib chiqib ikki xil ma’no tashishi mumkin” degan xulosaga keladi. Ko‘rinadiki, har ikki ijodkor ham so‘z san’atini ijodkorning eng muqaddas mas’uliyati sifatida talqin qiladi. Ularning nazarida badiiy

[31] Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. – Тошкент: Sharq, 2018. – Б.539.
[32] Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. – Тошкент: Sharq, 2018. – Б.545.
[33] Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. – Тошкент: Sharq, 2018. – Б.545.
[34] Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. – Тошкент: Sharq, 2018. – Б.548.
[35] Озод ватан саодати. 4-жилд.Бадиий публицистика. – Тошкент: Adib, 2013. – Б.57.

asarning qimmati iste’dodning o‘zidagina emas, balki so‘zni tanlash, uni o‘rinli qo‘llash va kitobxon qalbiga yetkaza olish mahoratida namoyon bo‘ladi. Sirojiddin Sayyid she’riyatning xalq qalbidan oziqlanishini xalq qo‘shiqlari va milliy qadriyatlar misolida izohlasa, O‘tkir Hoshimov xalq tilini “ummondagi xazina” deb baholab, askiya, xalqona iboralar va mumtoz adabiyot namunalarini ijodkor uchun bitmas-tuganmas ma’naviy boylik sifatida ko‘rsatadi.

“Jozib jununlar” essesi rassom Javlon Umarbekov shaxsiyatiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, unda muallif tasviriy san’at, ijodkor ruhiyati, Vatan, tarix va ma’naviyat haqidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ifodalaydi. Esseda ilgari surilgan asosiy g‘oyalardan biri inson umrining foniyligi va ruhning boqiyligi haqidagi falsafiy qarashidir. Muallif Navoiy va Hofiz Sheroziy hikmatlariga murojaat qilib, inson hayotining mazmunini ruhiy kamolot bilan bog‘laydi. U shunday yozadi: “Demak, ruh – mangu, jism-u vujud esa o‘tkinchi. Vujudning yorug‘ dunyodagi sayr-u javloni o‘lchab berilgan”[36]. Muallif rassom ijodini ham inson ruhiyatining badiiy ifodasi sifatida talqin etadi. U Javlon Umarbekov asarlarining tomoshabinni moddiy olamdan yuksak ma’naviy olam sari yetaklashini quyidagicha izohlaydi: “Musavvirning asarlari – hayot va tiriklik deb atalmish muhtasham qasrning sernaqsh-u nigor ayvonlariga ko‘rk va zeb bermoq ilinjida, ruh va jism o‘rtasidagi tafovutni qisqartirmoq uchun yaratilganday. Ularga tikilsangiz, tashqi moddiy va maishiy dunyoni tamomila unutasiz, vujud samoviy bir sog‘inch ila jimirlay boshlaydi, beixtiyor ruhning rang va tasvir kasb etayotganini ilg‘ay boshlaysiz”[37]. Darhaqiqat, inson umrining mazmuni jismning umrboqiyligida emas, balki ruhning kamolotida namoyon bo‘ladi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Sirojiddin Sayyidning badiiy va publitsistik merosi zamonaviy o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik, Vatan, tarixiy xotira, inson va ma’naviyat masalalarini poetik hamda badiiy-publitsistik tafakkur birligida ifodalagan o‘ziga xos ijodiy hodisa ekanligi aniqlandi. Shoir ijodining o‘ziga xosligi an’anaviy poetik tafakkurni zamonaviy estetik qarashlar bilan uyg‘unlashtirishi, milliy ruhni umuminsoniy mazmun bilan boyitishi hamda lirik va publitsistik tafakkur imkoniyatlarini bir butun ijodiy tizimga birlashtira olishi bilan belgilanadi.

2. Istiqlol davri o‘zbek adabiy jarayonida Sirojiddin Sayyid milliy tafakkur, vatanparvarlik va ma’naviy qadriyatlarni badiiy ifodalashning o‘ziga xos an’analarini shakllantirgan ijodkorlardan biri sifatida ajralib turadi.Sirojiddin Sayyid ijodiga bag‘ishlangan mavjud tadqiqotlar, asosan, uning she’riy faoliyatini yoritishga qaratilgan. Shoirning badiiy-publitsistik merosi, esse va badialarining poetik xususiyatlari esa yaxlit tizim asosida yetarlicha tadqiq etilmagan. Shoirning badiiy va publitsistik ijodi ilk bor o‘zaro uyg‘unlikda tadqiq etilib, uning zamonaviy o‘zbek adabiyoti rivojidagi o‘rni yaxlit tizimda yoritildi.

3. Sirojiddin Sayyid she’riyatida an’anaviylik va zamonaviylik uyg‘unligi muhim poetik tamoyil sifatida namoyon bo‘lib, xalqona ruh, mumtoz adabiy an’analar

[36] Сирожиддин Саййид. Асарлар. IV жилд. – Тошкент: Sharq, 2018. – Б.540.
[37] Сирожиддин Саййид. Асарлар. IV жилд. – Тошкент: Sharq, 2018. – Б.542.

hamda zamonaviy badiiy tafakkur bir butun estetik tizimni tashkil etadi. Sirojiddin Sayyid lirikasida Vatan, tarix, milliy o‘zlik, tabiat, inson va davr munosabatlari yetakchi mavzularni tashkil etishi, ushbu mavzular milliy ruh, tarixiy tafakkur va istiqlol g‘oyalari bilan uyg‘un holda badiiy talqin qilingani aniqlandi. Shoir she’riyatida milliy qadriyatlar umuminsoniy mazmun bilan boyitilib, poetik tafakkurning muhim mezoniga aylangani asoslandi.

4. Sirojiddin Sayyid poetikasining muhim belgilaridan biri badiiy obraz yaratish mahoratidir. Shoir lirikasida “rayhon”, “qo‘rg‘on”, “ayvon”, “beshik”, “ostona”, “bug‘doy”, “lola”, “osmon”, “tog‘”, “qaldirg‘och”, “yomg‘ir” kabi xalqona ramziy timsollar ko‘p uchraydi va ular shoirning individual poetik tafakkuri ta’sirida yangi badiiy-estetik mazmun kasb etadi.

5. Sirojiddin Sayyid she’riyati mavzu va janr jihatidan rang-barangligi bilan ajralib turadi. Shoir Vatan, tarix, urush, qatag‘on, ona, muhabbat, tabiat, inson ruhiyati va ijtimoiy-falsafiy masalalarni turli janrlarda badiiy talqin etgan. Lirik she’rlar, balladalar, marsiyalar, dostonlar, bag‘ishlovlar, to‘rtliklar va she’riy turkumlar shoirning poetik mahoratini namoyon etuvchi asosiy janrlar hisoblanadi. Mavzu va janrning o‘zaro uyg‘unligi esa Sirojiddin Sayyid ijodining o‘ziga xos badiiy xususiyatlaridan birini tashkil etadi.

6. Sirojiddin Sayyid publitsistikasi mavzu va janr jihatidan rang-barangligi, badiiy tafakkur hamda publitsistik mushohadaning uzviy uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Ijodkor esse, badia, portret-maqola, xotira va publitsistik maqolalarida Vatan, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar, adabiyot va inson ma’naviyati bilan bog‘liq masalalarni yuksak badiiy mahorat bilan talqin etadi. Publitsistik asarlarida obrazlilik, ramziy ifoda hamda poetik mushohada uyg‘unlashib, muallifning individual uslubini namoyon etadi. Ayniqsa, adabiy portretlarda ijodkor ma’naviy olami va ijodiy qiyofasini badiiy-publitsistik talqin asosida ochib berishi Sirojiddin Sayyid publitsistikasining muhim xususiyatlaridan biridir.

7. O‘zbek badiiy publitsistikasida Sirojiddin Sayyid esse va maqolalari mavzu ko‘lami, hayotiy voqelikni badiiy idrok etish tamoyillari, hamda badiiy-publitsistik ifoda usuli bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir esselari Vatan, milliy o‘zlik, adabiy siymolar va ijodkor shaxsiyati, zamonaviy adabiy jarayon kabi mavzular doirasida yaratilgan bo‘lib, ularda muallifning hayotiy kuzatishlari, xotiralari va estetik qarashlari uyg‘unlashgan. “Vatan barchamizga buyuk onadir”, “Vatanni o‘rganish”, “Xayr endi, bahorim”, “Yashasin yomg‘irlar”, “Vahob shoirning safari”, “Men ketarman ayta-ayta oxiri”, “Oq olmalar”, “Mehriyat va she’riyat” kabi esselarida shoirning badiiy-publitsistik mahorati, o‘ziga xos ijodiy uslubi va teran mushohadakorligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

8. Sirojiddin Sayyid esselarida tarix va bugun, shaxs va jamiyat, san’at va ma’naviyat masalalari o‘zaro uyg‘un holda talqin qilinadi. Uning esselari inson va jamiyat hayotining muhim jihatlarini yoritishi, hayotiy dalil va badiiy mushohadaning uyg‘unligi bilan e’tiborlidir. Adabiy portret va portret-maqolalarida ijodkor shaxsining badiiy qiyofasini yaratish, uning ijodiy olami va ma’naviy dunyosini ochib berish ustuvorlik qiladi. Shoir esselari zamonaviy adabiyotshunoslikda o‘ziga xos o‘ringa ega.

9. Sirojiddin Sayyid ijodi zamonaviy o‘zbek she’riyati va badiiy publitsistikasining muhim estetik hodisalaridan biri sifatida alohida ilmiy qimmat kasb etadi. Uning boy adabiy ijodi poetik mahorat, badiiy tafakkur, uslub, til xususiyatlari va publitsistik qarashlari nuqtayi nazaridan yangi ilmiy izlanishlar uchun keng imkoniyat yaratadi. Shoir ijodida poetik tafakkur, falsafiy mushohada, obraz yaratish mahorati, individual uslub hamda badiiy publitsistikaga xos estetik tamoyillar uzviy uyg‘unlashgan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/2026.10.06.Fil.06.06 AT URGANCH STATE UNIVERSITY NAMED AFTER ABU RAYHON BERUNIY

URGENCH STATE UNIVERSITY NAMED AFTER ABU RAYHON BERUNI

KURANBAYEVA GULIANBAR UMIRBEK KIZI

“SYROJYDDYN SAYYID’S LITERARY-ARTISTIC AND JOURNALISTIC MASTERY”

10.00.14 - Twentieth-century Uzbek literature and the contemporary literary process

DISSERTATION ABSTRACT

of the doctor of philosophy (PhD) in philological sciences

URGANCH - 2026

The topic of the Doctor of Philosophy dissertation was registered by the Supreme Attestation Commission under the Academy of Scinces of the Republic of Uzbekistan under the number B2024.2.PhD/Fil4802.

The dissertation has been prepared at Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) on the scientific council website (www.urdu.uz) and on "Ziyonet" Information and Education portal (website www.ziyonet.uz).

Scientific consultant:	**Rakhimova Bekposhsha Bakhadirovna** Doctor of Philological Sciences, Professor
Official opponents:	**Sadullayeva Mokhira Ataullayevna** Doctor of Philological Sciences (DSc), docent
	Sabirova Zebo Zakirovna Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, docent
Leading organization:	**Urganch Ranch Technology University**

The defense of the dissertation will take place on November "25", 2026 at 9:00 at a meeting of the Scientific Council DSc.03/2026.10.06.Fil.06.06 at the Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni (Address: 14, H. Olimjan Str., Urgench, 220100; Phone: (99862) 224-67-00; Fax: (99862) 224-67-00; e-mail: info@urdu.uz).

This dissertation could be reviewed in the information-source center of Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni (registration №. D-1094) (Address: 14, H.Olimjan Str., Urgench, 220100; Phone: (99862) 224-67-00). E-mail: arm@urdu.uz

The abstract of the dissertation is distributed on "6" November 2026.

(Protocol at the register№ 13 on "6" November 2026).

D.Q. Gayipov
Deputy chairman of the scientific council awarding scientific degrees, doctor of philological sciences DSc, professor

S.S. Atajanov
Scientific secretary of the scientific council awarding scientific degrees, PhD in philological sciences, docent

A.I. Primov
Chairman of the scientific seminar at the scientific council awarding scientific degrees, doctor of philological sciences DSc, professor

INTRODUCTION (Overview of the research)

The relevance and necessity of the dissertation topic.

The relevance and necessity of the dissertation topic. In world literary scholarship, the integral study of a writer's personality, artistic thinking, individual style and aesthetic views is recognized as one of the important scholarly directions. In particular, the systematic study of a given writer's poetic mastery, the factors shaping the formation of their artistic thinking, their distinctive style in expressing national and universal values, and their journalistic activity is considered one of the pressing issues in the development of the literary process. Contemporary literary scholarship pays special attention to the interrelation of artistic creativity and journalism, to the principles by which a writer's worldview is manifested in poetic and journalistic works, and to how national thinking and artistic-aesthetic views are expressed in literary texts.

In world literary studies, in the course of analysing a writer's talent, issues such as artistic thinking, individual style, the mastery of creating images, poetic language, philosophical reflection, and the relationship between the national and the universal have been extensively studied. At the same time, scholarly research aimed at examining the poetic and journalistic work of contemporary writers in their mutual harmony, defining their literary-aesthetic views, and determining their place in the development of national literature continues consistently.

In Uzbek literary scholarship, studying the artistic mastery, poetic thinking and literary-aesthetic views of representatives of the literature of the independence period is regarded as one of the important scholarly tasks. As our President has emphasised, in order to preserve our national identity today, to elevate the consciousness and thinking of our people, and thereby to ensure the country's steady development, it is above all necessary to support literature, culture and the arts[38]. Syrojyddyn Sayyid, one of the major representatives of contemporary Uzbek poetry, stands out in his work for its national spirit, love for the Motherland, historical memory, the relationship between man and nature, the interpretation of spiritual values, philosophical reflection and profound artistic mastery. In the poet's work, folk spirit and contemporary artistic thinking are fused together; the awareness of national identity, the experiences of the human soul, and profound philosophical reflections on life and the times find their own distinctive poetic interpretation. At the same time, Syrojyddyn Sayyid's journalistic writing skill is also an important source illuminating his literary-aesthetic views, spiritual-moral ideals and social position. Although certain aspects of the poet's work have been covered in literary-critical articles and scholarly studies, there remains a need to study his artistic and journalistic mastery in their mutual harmony, in a comprehensive manner, examining his poetic thinking, system of images, generic explorations, stylistic individuality and journalistic views as an integral whole. The scholarly-theoretical study of Syrojyddyn Sayyid's poetic and journalistic work, and the determination of his place and significance in the development of contemporary Uzbek literature, define the relevance of this research topic.

[38]Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 258

This dissertation research aligns with the fulfilment of a number of tasks, including: the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 of 8 October 2019 “On approving the Concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030”, No. PF-5850 of 29 October 2019 “On measures to further strengthen the status of the Uzbek language as the state language”, No. PF-60 of 28 January 2022 “On the development strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”; and in the Resolutions No. PQ-2909 of 20 April 2017 “On measures to further improve higher education institutions”, No. PQ-376 of 18 May 2018 “On further improving the system of translating and publishing selected works of world literature into Uzbek and translating and publishing masterpieces of Uzbek literature into foreign languages”, No. PQ-3775 of 5 June 2018 “On additional measures to improve the quality of education in higher education institutions and ensure their active participation in the broad-scale reforms being carried out nationwide”, as well as other legal and regulatory documents related to this activity.

The correspondence of the research with the priority directions of development of science and technology of the Republic. The research was carried out in accordance with priority direction II of the development of science and technology of the Republic, “Ways of forming and implementing a system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural and spiritual-educational development of an informed society and a democratic state.”

The scope of the dissertation research. The theoretical foundations of the question of a writer’s poetic mastery have been studied to a certain extent in world and Russian literary scholarship. Here, issues such as a writer’s mastery in creating the lyrical hero, word choice, the formation of a system of artistic images, stylistic individuality, artistic thinking, poetic language, compositional construction, the use of artistic detail, symbols and images, the author’s conception, and the expression of the aesthetic ideal have been analysed on the basis of various theoretical approaches[39]. In Uzbek literary scholarship too, the questions of a writer’s poetic mastery have been studied by a number of scholars[40]. In particular, a significant place is occupied by scholarly studies devoted to the poetic qualities of poetry, its artistic means of depiction, style, the principles of image creation, and the individual mastery of poets[41]. A number of articles and studies have also been published on Syrojyddyn Sayyid’s work and the distinctive features of his lyric poetry. Scholarly research and articles on the People’s Poet of Uzbekistan Syrojyddyn Sayyid have been published by O.

[39] Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Наука, 1970. – С. 266; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Сов.писатель, 1963; Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976. – С. 484; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. – С. 404; Ковалев А.Г. Психология литературного творчества.– Ленинград, ЛГУ, 1960.

[40]Қўшжонов М. Ҳаёт ҳакикати ва бадиий ҳақиқат. – Тошкент: Фан, 1982. – 64 б; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти – Тошкент: Шарқ, 2004, - 640 б; Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан. 1983; Тўйчиев У. Бадиийлик мезонлари ва маромлари.-Тошкент: 2011; Карим Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015; Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006 – 201. б.

[41]Н.Раҳимжонов. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007. – 133 б.; Н.Раҳимжонов. Бадиият – бош мезон. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 223 б.; Н.Жабборов. Замон. Меъзон. Шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – 304 б. Ҳамдамов У. Янги ўзбек шеърияти. Тошкент. – Тошкент: Фан, 2011. – 304 б.

Sharafiddinov, N. Rahimjonov, A. Rasulov, N. Jabborov, A. Ulug'ov, B. Karim and other literary scholars. At the same time, the People's Poets of Uzbekistan A. Oripov and E. Vohidov, as well as Andrei Voznesensky, one of the leading representatives of contemporary Russian poetry, have given the poet's lyric poetry a high assessment.

In 2018, an article by Ozod Sharafiddinov, "The Heavy Burden of Being a Poet", first published in the newspaper O'*zbekiston adabiyoti va san'ati* on 29 October 1982, was included as a foreword to Syrojyddyn Sayyid's three-volume Selected Works, issued by the "Sharq" publishing house[42]. In it, the critic gives a high assessment of S. Sayyid's poetry and expresses profound confidence in his future.

In N. Rahimjonov's substantial portrait-article "Destinations of the Heart (Sketches for a Creative Portrait of Syrojyddyn Sayyid)", included in his book Uzbek Poetry of the Independence Period[43], Syrojyddyn Sayyid's lyric poetry, its thematic range and its distinctive features are subjected to analysis. In the book "Artistry is Undying Novelty" by the literary scholar and critic A. Rasulov, Syrojyddyn Sayyid is recognized as a successor to the work of A. Oripov and E. Vohidov, prominent representatives of Uzbek poetry[44].

N. Jabborov's articles "From 'The Map of the Soul' to 'The Season of the Heart'" and "Poetry Rich in Metaphor", included in his book Time. Criterion. Poetry, are devoted to the analysis of Syrojyddyn Sayyid's lyric poetry[45]. In the article "From The Map of the Soul" to "The Season of the Heart", the scholar examines the poet's work through the poems included in several books created between the publication of his first collection and the writing of the article. In illuminating Syrojyddyn Sayyid's activity and personality, the critic acknowledges that he is a writer who has secured his own place in our national poetry. The literary scholar A. Ulug'ov's book Motherland - Soul and Body subjects Syrojyddyn Sayyid's poems on the theme of the Motherland to analysis, studying them comparatively alongside the poems of the elder poet Abdulla Oripov[46].

In the literary scholar Z. Pardayev's dissertation "The Renewal of Folk Pathos in the Poetry of the Independence Period", Syrojyddyn Sayyid's lyric poetry, alongside that of such representatives of independence-era poetry as Usmon Azim, Matnazar Abdulhakim, Azim Suyun, Muhammad Yusuf, Abduvali Qutbiddin, Eshqobil Shukur and Rustam Musurmon, is also subjected to analysis for its folk intonations[47].

In the researcher G.I. Doshanova's dissertation "The Development of Small Lyric Forms in Contemporary Uzbek Poetry (based on the work of Syrojyddyn Sayyid, Mahmud Toir and Farida Afro'z)", the generic-poetic features of small lyric forms in

[42] Sharafiddinov O. Shoirlikning og'ir yuki // S.Sayyid. Tanlangan Asarlar. – Toshkent: Sharq. 2018. B.6-9.

[43] Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. –Тошкент. Фан. – Б.260.

[44] Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ. 2007. – Б.259.

[45] Жабборов Н. Замон .Мезон. Шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2015. Б.153-186.

[46] Улуғов А. Ватан – жон ва тан. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2008. – Б.64-81.

[47]Пардаев З. Истиқлол даври шеъриятида халқона пафоснинг янгиланиши. – Тошкент. 2020. – Б.45.

